

**OG'IR NUTQ NUQSONLI BOLALAR VA NUTQ NUQSONLARINING  
KELIB CHIQISHI SABABLARINI OLDINI OLISH***Uraimjonova O'lmasxon**Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lif fakulteti**Maxsus pedagogika: logopediya yo'nalishi**102- guruh talabasi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalarda uchraydigan og'ir nutq nuqsonlari ularning kelib chiqishi hamda sabablari va ularni oldini olish chora - tadbirlari haqida fikr yuritiladi

**Annotation.** This article discusses the origins and causes of severe speech defects in children and measures to prevent them

**Kalit so'zlar.** Alaliya, Afaziya, fonetik-fonematik nutq, sistemali va yozma nutq, didaktik o'yinlar, korreksion ta'lif

**Key words.** Alalia, Aphasia, phonetic-phonemic speech, systematic and written speech, didactic games, correctional education

Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalari dastlab XVII asrda Yevropa mamlakatlarida surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda olib borildi. XIX asrning ikkinchi yarmida nutq faoliyati haqida ilmiy tasavvur kengayib, logopediya yo'nalishi tubdan o'zgardi. XX asrga kelib logopediya mustaqil fan sifatida shakllandi. Bizning mamlakatimizda nutq kamchiligi bilan olib boriladigan korreksion - tarbiyaviy va pedagogik ishga e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda inkulyuziv ta'lif alohida ta'lif ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligi hisobga olingan holda ta'lif oluvchilar uchun ta'lif tashkilotlarida ta'lif olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Inkulyuziv ta'lifni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 3-fevraldag'i PF-6155- son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini " Yoshlarni qo'llab- quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi " hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " 2020- yil 13 - oktabrdagi PQ- 4860- son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quydagilar:

a) Umumiy o'rta ta'lif tashkilotlarida inkyuziv ta'lifni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 1 - ilovaga muvofiq;

- b) Jismoniy, aqliy,sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari to'g'risidagi Nizom 2- ilovaga muvofiq;
- v) Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lif muassasalari to'g'risidagi nizom 3- ilovaga muvofiq;
- g) Jismoniy,aqliy,sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan,shuningdek,uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lif berish tartibi to'g'risidagi nizom 4- ilovaga muvofiq;
- d) Psixologik tibbiy- pedagogikkomissiyalar to'g'risidagi nizom 5 - ilovaga muvofiq;
- e) Alohidat a'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lif muassasalarida kasbga o'qitish tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 6- ilovaga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta'lif dasturlarini amalga oshiruvchi maxsus ta'lif muassasalari bilan bir qatorda turli rebilikaysiya markazlari, rivojlanish markazlari, aralash guruhlar va huquqlar yo'lga qo'yildi.

Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalarga og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar kiradi. Nutq nuqsoni logopediya fanida tilning meyordan chetga chiqish deb ataladi. Nutq nuqsoni o'z - o'zidan barham topmay, vaqt o'tgan sari mustahkamlanib, kuchayib boradi. Og'ir nutq nuqsoni insonlarning nafaqat nutqiga balki umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir etadi. Hozirgi kunda nutq nuqsonlarining turli klassifikatsiyalari mavjud. M. U. Hamidovaning "Maxsus pedagogika" kitobida R. Ye. Levina va shogirdlari Lotaringiya. S. Vigostikiy nutq nuqsonlarini 3 ta guruhgaga bo'ladi: fonetika- fonematik xarakterli nuqsonlar, sistemali nutq buzilishlari va yozma nutq nuqsonlari. Logopediya fanida nutq sistemasida nuqsonlar terminlar bilan yuritiladi: fonetika - fonematik xarakterli nuqsonda tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar dislaliya, rinolaliya, anartriya, ovoz nuqsonlaridan afoniya, disfoniya, fonasteniya, rinofaniya, laringomirlashgan ovoz kiradi. Sistemali nutq nuqsonlariga alaliya, afaziya kirsa, yozma nutq nuqsonlariga esa agrafiya aleksiya, disgrafiya, disleksiyalar kiradi. Nutqni idrok etish nuqsonlarni zaif eshituvchi aqlan zaif, fonematik eshitishi buzilgan kishilarda kuzatiladi, natijada bolaning talaffuzi, ovozi, nutqida o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

19 asrning o'rtalaridan boshlab, nutq ontogenezi olimlarni qiziqtirib keldi. Nutq ontogenezi bola nutqini rivojlantirish, bir tomondan, tashqi ta'sirlar bilan tavsiflanadi. K. D. Ushinskiy bolalarni ona tilida o'qitishning zarurligini asoslab, bolalarga dastlabki o'qitish medodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o'zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o'zaro munosabatlarini falsafiy jihatdan chuqur anglash, o'z - o'zini rivojlantirish va o'qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlarini borasida o'z fikrlarini bildirdi. Rossiya fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotlar L. V. Vigotskiyning madaniy - tarixiy nazariyasiga va A. N. Leontevning faoliyat

nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan. Natijada bolalar nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ro'y beradi, degan tizimlari shakllandı. Bunda bola kattalarning nutq namunalarini sust ravishda qabul qilib olmaydi, balki nutqni faol o'zlashtiradi. Nutqni rivojlanishini A. N. Leontev quyidagicha izohlaydi: Nutqni "rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatdan o'zgarish jarayonidir, zero, fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bo'g'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir ". Monologik nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasining yanada rivojlanishi bolalar ravon nutq turlari va fikr bildirishning turli xillarini o'zlashtirish xususiyatlarining chuqur tadqiq etilishi bilan tavsiflanadi. F. A. Soxin, O. S. Ushakova va ularning shogirdlari tomonidan ravon nutqning shakllantirishning turli jihatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ravon nutqni baholashning shunchaki mantiqlilik, izchillikda ko'ra yanada aniqroq mezonlarini qidirishni gal dagi vazifalardan biri qilib qo'ydi. Ravonlikning asosiy ko'rsatkichi sifatida so'zlar, gaplar va fikrlarning qismlari o'rtasida zarur aloqa vositalaridan foydalangan holda, matnni tarkibiy jihatdan to'g'ri tuzish qobiliyatini shakllantirish qabul qilingan. Olimlar bolalarni o'qitishni ularning yuqori darajadagi aqliy va nutqiy rivojlanish darajasini ta'minlash, til qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradigan darajada optimal tashkil etish yo'llarini ochish borasida faol ish olib bormoqdalar.

Nutq nuqsonlari quyidagi mezonlar asosida tekshiriladi:

1.Guruhash davri (3 oylikdan)

2.1 yosh 6 oylikda 10-15 ta so'z

2.2 yoshda 300 ta so'z

3.3 yoshda 1000 ta so'z

4.6-7 yoshga kelib 4000 dan 5000 gacha so'z lug'at boyligida bo'lishi lozim.

Nutq nuqsonlarini bartaraf etish yo'llari:

1.Artikulsiya, nafas, mayda qo'l muskullarini rivojlantiruvchi mashqlar.

2.Logomassaj ( nuqtali, bo'shashtiruvchi, tekshirtiruvchi massaj)

3.Muommoli tovushni nutqqa qo'yish ( taqlid va mexanik uslida)

4.Nutqni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar

Rossiyalik olimlar tomonidan qo'yilgan bir qator tamoyillarga amal qilish muhim ( L. S. Vyugotskiy, V. I. Lubovskiy, S. D. Zopromnaya) rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tashxislashda. Bolani psixologik - pedagogik o'rganish pedagog - defektolog tomonidan amalga oshiriladi. Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoyillariga ta'rif bergan dastlabki Tadqiqotchilardan biri R. Ye. Levina hisoblanadi. Bundan oldin ham ko'pchilik olimlar nutq buzilishlari, ularning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish hamda fikr- mulohazalar bildirganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa

tibbiyotining nutq buzilishlarini o'rganish borasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarning katta ta'siri bo'lib, A. Kusmaul nutq buzilishlarining dastlabki turlari haqida yig'ilgan tasavvurlarni tanqid ostiga oldi; ularni sistemalashtirdi, atamalarni tartibga keltirdi.

Mutaxassislar nutqning o'z vaqtida rivojlanmasligi yoki keskin sekinlashuvining sabablari juda ko'p ekanligini aniqlashgan:

- Homiladorlik davri ( perinatal davri)
- Tug'ruq davri ( natal davri)
- Tug'ruqdan keyingi davr ( postnatal davri)

Homiladorlik davrida turli xil kasalliklarni boshdan kechirish, turli xil infeksiyalar, intoksikatsiya, homila toksikoz, gepoksiya, yoki kislorod yo'qotish, qon bosimining oshishi, homilador ayol va homila qon guruhining mos kelmasligi. Homiladorlik davrida sigaret, alkagol va giyohvand moddalarni iste'mol qilish, o'z - o'zini davolash, ya'ni ayrim dori- darmonlarni qabul qilish. Homiladorning homila uchun xavfli bo'lgan joylarda ishlashi ( radiatsiya).

Tug'ruq davrida akusherlik patalogiyalari ya'ni tos suyagining kichikligi, homilaning kindik o'qiga o'ralishi. Tug'ruqdan oldin suv ketishi, homilaning noto'g'ri joylashishi, tug'ruq jarayonida bosh miyaning jarohatlanishi, tug'ruq jarayonida asfiksiya natijasida bolaning ko'karib tug'ilishi.

Tug'ruqdan keyingi davr - 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davrda bosh miyadan turli jarohatlarni olish, bosh miyadagi infeksiyalar, turli xil kasalliklar sababli yuzaga keladi. Nutq nuqsonlarini tasniflashda avval bolaning ruhiy, aqliy va eshitish idroki tekshirib olinadi.

Hozirgi kunda rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanishga va soglomlashtirishga muhtoj bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari ( maktablar, maktab- internatlar) bolalarni og'ir nutq nuqsonlari, kasalliklarini oldini olish va davolashga samarli yozdam ko'rsatib o'z faoliyatlarini yutmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, nutq nuqsonlari qo'zgalish va tormozlanish jarayonlarining muvozanati buzilishidan kelib chiqmoqda. Bolaning ilk rivojlanish davridan boshlab va homiladorlik darvridan g'amxorlik qilish bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini oldini olishga yordam beradi. Logoped tavsiyalarida bolaning nutqi kechiktirayotganini yoki tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilayotganini, duduqlanayotganini sezgan zahoti mutaxassislarga murojaat qilishingiz lozim. Qancha erta murojaat qilsangiz, nutq nuqsonlari shuncha samarali bartaraf etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.R.Mo'minova, SH. M. Amirsaidova, M. U. Xamidova - Maxsus psixologiya O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent- 2013
2. Ayupova MY "Logopediya" Toshkent - 2019

3. Mo'minova L. R. - "Logopediya" Toshkent- 1994 y
4. L. R. Mo'minova. Nutq nuqsonlari bo'lgan bolalarning psixologik- pedagogik diagnostikasi. Toshkent 2012y
5. Mo'minova. L. R, Ayupova. M. Ye \_ Nutq terapiyasi - Toshkent, 1993 y
6. Mo'minova. L. R \_ "Umumiy psixologiya" - Toshkent, 2016 y
7. Mo'minova. L. R - "To'liqsiz nutqi bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishning korrektiv pedagogik asoslari" Annotatsiya
8. Mo'minova. L. R - "Logopediya tekshiruvi va bolalarni o'qitish" Toshkent - 1992 y